

BOSTIRIB KELAYOTGAN CHO'L



Daraxtlar ildizi yyerosti suvlarini yuqoriga ko'tarib, suv havzalarini qurib qolishdan saqlaydi, soya-salqin beradi, barglari orqali havoni tozalab turadi. Har bir barg havodagi mayda chang va qum zarralarini qattiq tortib olib, ularning o'pkamizga kirib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Yomg'ir yog'sa yoki suv suv sepilsa, barglar changlardan tozalanadi va yana xizmatini davom ettiradi. Shuning uchun har bir yashil bargni himoya qilish, yangi daraxt ko'chatlarini ekaverish kerak.



Cho'ldagi o'rmon



Surxondaryo viloyatida tez-tez chang bo'ronlari ko'tarilib turadi, chunki Qizilqum sahrosi viloyat hududiga yaqin. Chang bo'ronlari odamlar yashaydigan mahallalargacha yetib kelib, yildan-yilga kattaroq maydonlarni egallab olmoqda. Bu jarayon "cho'llanish" deb ataladi.

Cho'llanish tufayli unumdor yyerlar, yo'llar, butun boshli qishloqlar qum ostida qolmoqda. Kuchli garmsel esgan paytlarda odamlar faqat uyda o'tirishga majbur bo'ladi, chunki ko'chada turib bo'lmaydi. Garmsel tufayli uy hayvonlari shikastlanadi, bog'lar, tomorqalarga katta talafot yetadi.

Yuzga yaqin oila yashaydigan Qorayantoq qishlog'ida ham shunday bo'ldi. Bir kuni qishloqqa Buxorodan olimlar kelib, ko'p daraxt ekish orqali cho'llanishni to'xtatish mumkinligini aytishdi.

Bu gapni eshitgan Namoz bog‘bon ko‘chat ekib, butun boshli o‘rmon yaratishni niyat qildi. Niyatini tanish-bilishlariga aytgan edi, ko‘pchilikka ma‘qul keldi. Bog‘bonga yordam berish uchun juda ko‘p saksovul ko‘chatlari olib kelishdi. O‘sha kundan boshlab Namoz bog‘bon qumga saksovul eka boshladi.

Afsuski, birinchi yili ekilgan hamma ko‘chatlar garmselga dosh berlmay qurib qoldi.

Namoz bog‘bon muammoni o‘rganib chiqib, yo‘lini topdi – har bir ko‘chatning tagida biroz loy qo‘yib ekilsa, ular qurib qolmas ekan.

Namoz bog‘bon saksovulning boshqa, cho‘lda o‘sadigan navlarini ham o‘rganib chiqib, 50 gektar joyga 15 ming dona saksovul ekdi.

Futbol maydonini tasavvur qiling. Mana shunday maydonlardan o‘ttiz beshtasi 50 gektar bo‘ladi.

Mana shu kattakon o‘rmon birgina insonning mehnati tufayli paydo bo‘ldi. Chunki u biror marta “Bir o‘zimning qo‘limdan nima ham kelardi?” demadi.



1. Cho‘llanish deb nimaga aytiladi?
2. Namoz bog‘bon nima uchun ko‘chat ekmoqchi bo‘ldi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, cho‘lda daraxt o‘stirish osonmi?



Tadqiqotchilarning aytishicha, yirik shaharlardagi harorat qishloq joylarga qaraganda 5-7 daraja issiq, havosi ham ancha quruq bo‘ladi. Sababi betondan qurilgan ko‘pqavatli uylar, kondisionerlar va asfalt bilan qoplangan yo‘llar havoni nihoyatda qizdirib yuboradi. Qizigan havo asta-sekin yuqoriga ko‘tarilib, mashinalardan chiqqan tutun va chang-to‘zon bilan aralashib, shahar ustida to‘planib qoladi.

Bu muammoning yagona yyechimi – daraxt ekib, shaharni ko‘kalamzorlashtirishdir. Buning uchun, birinchi navbatda, bog‘lar, xiyobon va maysazorlar barpo qilish kerak. Lekin ular uchun katta-katta maydon talab etiladi, shaharda esa joy tanqis. Shu bois ko‘pincha ko‘kalamzorlashtirishning boshqa usullarini qo‘llaniladi. Masalan, uylarning devorlari va tomlariga chirmashib o‘sadigan o‘simliklar ekiladi. Bunday tajribalar AQSH, Yevropa va Yaponiyaning yirik shaharlarida anchadan beri mavjud.

